

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGI
PEDAGOGIK MAHORAT VA XALQARO BAHOLASH
ILMIY-AMALIY MARKAZI**

**2026-2027-O‘QUV YILIDA IXTISOSLASHTIRILGAN TA’LIM
MUASSASALARI AGENTLIGI TIZIMIDAGI MAKTABLARNING
7-SINFIGA QABUL IMTIHONI UCHUN TABIIY FANDAN TEST
TOPSHIRIQLARI SPETSIFIKATSIYASI**

Toshkent – 2026

2026-2027-O‘QUV YILIDA IXTISOSLASHTIRILGAN TA’LIM MUASSASALARI AGENTLIGI TIZIMIDAGI MAKTABLARINING 7-SINFIGA QABUL IMTIHONI UCHUN TABIIY FANDAN TEST TOPSHIRIQLARI SPETSIFIKATSIYASI

Mazkur spetsifikatsiya Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligi tizimidagi maktablarning 7-sinfiga o‘qishga qabul qilish bo‘yicha hujjat topshirgan nomzodlarning tabiiy fandan bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarini baholashda foydalaniladigan test topshiriqlarining mazmuni, qamrovi, turi, shakli, baholash mezonini va o‘tkazilish tartibiga qo‘yilgan talablarni belgilaydi.

I. Umumiy tamoyillar

Baholash maqsadi – nomzod o‘quvchilarining tabiiy fanidan bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarini amaldagi dasturlarda belgilangan o‘quv maqsadlari asosida kompleks baholash. Mazkur baholash natijalari asosida ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligi maktablarining 7-sinfiga qabul qilish bo‘yicha qarorlar asoslangan (valid) bo‘lishini ta’minlash maqsadida baholashda validlik, ishonchlilik, adolat va shaffoflik tamoyillariga rioya qilinishi ta’minlanadi.

II. Me’yoriy asoslar

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 27-maydagi “Prezident, ijod, ixtisoslashtirilgan maktab va maktab-internatlarga o‘quvchilarni saralab olish hamda qabul qilish tartibiga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi 214-son qarori.

2. Tabiiy fandan umumiy o‘rta ta’limning 5-6-sinflar uchun amaldagi o‘quv dasturi

III. Baholash qamrovi va ajratilgan vaqt

Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligi maktablarining 7-sinfiga o‘qishga qabul sinovida o‘quvchilarining tabiiy fani bilish darajasini aniqlash uchun jami **30 ta** yopiq test topshirig‘i taqdim etiladi. Topshiriqlarni bajarish uchun 70 daqiqa vaqt berilgan. Bunda yopiq test topshiriqlaridan (*yagona to‘g‘ri javobni talab qiladigan (Y1), moslashtirishni talab qiladigan (Y2) va ketma-ketlikni talab qiladigan test topshiriqlaridan(Y3)*) foydalaniladi. Test topshiriqlarining mazmun sohasi, baholanadigan bilim, ko‘nikma va kompetensiyalar bo‘yicha taqsimoti quyidagi jadvallarda aks etgan:

Mazmun soha	Baholanadigan konstruktlar	Testlar soni
1. Gulli o'simliklar (1-3 savollar)		3 ta
1.1. Gul	Gulning asosiy qismlarini, gulli o'simliklarga xos belgilarni va gul qismlarining nomlarini biladi, biologik atamalarni to'g'ri qo'llaydi hamda obyektни taniydi.	1
1.2. Gulli o'simliklarning ko'payishi	Gulli o'simliklarning ko'payishi va rivojlanish bosqichlarini aniqlaydi hamda hayot sikli davomida sodir bo'ladigan o'zgarishlarni tushuntiradi.	1
1.3. Urug'ning unishi	Urug'larning unib chiqishiga turli omillarning ta'sirini tahlil qiladi, tajriba o'zgaruvchilarini hisobga olib natijalarni taqqoslaydi hamda tajriba natijalari asosida amaliy vaziyatga mos asosli xulosa chiqaradi.	1
2. Moslanishlar (4-savol)		1 ta
2.1. Yashash muhitiga moslanish	Tirik organizmlarning yashash muhitiga moslanishlarini tahlil qiladi, ularni taqqoslaydi va moslanishning muhitga moslashuvdagi ahamiyatini tushuntiradi	1
3. Organizmda hazm qilish, nafas olish va qon aylanish jarayonlari (5-7-savollar)		3 ta
3.1. Ratsional ovqatlanish	Ratsional ovqatlanish talablari asosida berilgan ovqat ratsionini tahlil qiladi va uning ovqat hazm qilish jarayoniga ta'sirini tushuntiradi	1
3.2. Ovqat hazm qilish	Ovqat hazm qilish jarayonining bosqichlarini jadval yoki sxema asosida aniqlaydi va turli hayvonlarda hazm qilish sistemasidagi o'xshashlik va farqlarni tushuntiradi	1
3.3. Qon aylanish va nafas olish	Nafas olish va qon aylanish sistemalarining asosiy qismlari va funksiyalarini biladi, biologik atamalarni to'g'ri qo'llaydi hamda rasm va sxemalarda ko'rsatilgan organlarni taniydi.	1
4. Kasalliklar (8-9-savollar)		2 ta
4.1. Yuqumli kasalliklar	Yuqumli kasalliklarning kelib chiqish sabablari, tarqalish yo'llari va ularning oldini olish choralarini real hayotiy vaziyatlar bilan bog'lab tushuntiradi.	1
4.2. Himoya mexanizmi	Odam organizmining himoya mexanizmlarining kasalliklarning oldini olishdagi rolini baholaydi va ularning zaiflashishi oqibatlarini asoslaydi.	1
5. Oziq zanjirlari va oziq to'ri (10-savol)		1 ta
5.1. Oziq zanjiri tahlili	Oziq zanjiri va oziq to'ri misolida energiya oqimini tushuntiradi hamda zaharli moddalar uzatilishining tirik organizmlarga ta'sirini izohlaydi.	1
6. Moddaning agregat holatlari (11-13-savollar)		3 ta
6.1. Qattiq, suyuq va gazsimon	O'quvchi qattiq-suyuq-gaz holatlarni taniydi va ta'riflaydi, moddaning zarrachalardan tuzilganini biladi; zarrachalarning	1

moddalarning tuzilishi	joylashuvi va harakati (qattiqda zich va tartibli, suyuqda yaqin va siljiydi, gazda siyrak va erkin) hamda shakl/hajm xossalarini ajratadi; oddiy rasm, jadval va hayotiy misollarda modda holatini aniqlab ayta oladi, asosiy atamalarni (molekula, zarracha, diffuziya) to'g'ri qo'llab tushuntiradi.	
6.2. Moddalarning xossalari	O'quvchi moddalarning fizik xossalarini kundalik vaziyatlarda qo'llaydi: berilgan tavsif va kuzatuvlarga tayangan holda moddalarni taqqoslaydi, ajratadi va tanlaydi; tajriba yoki rasm/jadval ma'lumotlariga qarab qaysi modda og'irroq–yengilroq, qattiqroq–yumshoqroq, yaxshi–yomon o'tkazuvchi, tez–sekin eruvchi ekanini aniqlaydi; ma'lum maqsad uchun (idish, sim, issiqqa chidamli buyum) mos materialni tanlab, tanlovini oddiy mantiq bilan asoslaydi.	1
6.3. Bug'lanish va kondensatsiya. Qaynash va bug'lanish	O'quvchi kundalik vaziyatlarda bug'lanish, kondensatsiya va qaynash jarayonlarini aniqlaydi va farqlaydi; sharoitlar (harorat, shamol, havoning namligi, sovitish, qizdirish) o'zgarganda jarayonning tezlashishi yoki sekinlashishini tushuntiradi; kuzatuv/tajriba natijasiga tayangan holda qaysi jarayon ketayotganini asoslab xulosa chiqaradi va amaliy holatlarda (tez quritish, bug' hosil qilish, tumanlanishni kamaytirish) mos usulni tanlaydi.	1
7. Moddalarning o'zaro ta'siri (14-16-savollar)		3 ta
7.1. Suvning xossalari. Erituvchi, eruvchi va eritma	O'quvchi suvning xossalarini (oqimlili, idish shaklini olishi, ko'p moddalarni eritishi, bug'lanishi, muzlab–erishi) amaliy vaziyatlarda qo'llaydi: berilgan holatda suvning qaysi xossasi namoyon bo'layotganini aniqlaydi; eritma tayyorlashda erituvchi–eruvchi–eritmani ajratadi (masalan, shakarli choy, tuzli suv), qaysi sharoitda erish tezlashishini (aralashtrish, qizdirish, maydalash) tushuntiradi va kundalik muammolarda (eritma tayyorlash, erimaydigan modda bilan aralashma farqi) to'g'ri qaror tanlaydi.	1
7.2. Fizik o'zgarishlar. Moddalarning erish jarayoni	O'quvchi berilgan tajriba/kuzatuv ma'lumotlarini tahlil qilib, moddadagi o'zgarish fizik ekanini (tarkib o'zgarmay, faqat holat/shakl o'zgarishi) dalillar bilan asoslaydi; erish jarayonini bug'lanish/qaynashdan aniq farqlab, turli sharoitlarda (qizdirish, sovitish, modda turi, issiqlik manbai kuchi) jarayonning kechishini bashorat qiladi; rasm yoki vaziyat bo'yicha kuchli/kuchsiz qizdirishning natijasini solishtirib, qaysi usul tezroq, xavfsizroq yoki tejamkorroq ekanini tanlaydi va izohlaydi; kundalik muammolarga (muzni tez eritish, shokolad/mum eritish, sovuqda muzlashdan saqlash) tahliliy yechim taklif qilish.	1
7.3. Kimyoviy reaksiyalar	O'quvchi kundalik vaziyatlarda kimyoviy reaksiyani aniqlaydi va fizik o'zgarishdan farqlaydi; berilgan kuzatuv belgilariga (gaz ajralishi, cho'kma paydo bo'lishi, rang/hid	1

	o'zgarishi, issiqlik/yorug'lik ajralishi yoki yutilishi) tayangan holda reaksiyaning ketayotganini asoslaydi; oddiy tajriba tavsifi yoki rasm/jadvaldan foydalanib "qaysi omil reaksiyani tezlashtiradi yoki sekinlashtiradi" (harorat, aralashtirish, maydalash, modda miqdori) degan savollarga xulosa chiqaradi va xavfsizlik qoidalariga amal qilgan holda to'g'ri amaliy qaror tanlaydi.	
8. Kuchlar. Kuchlarning ta'siri (17-19-savollar)		3 ta
8.1. Kuchlarning turlari. Kuch chizmalari	O'quvchi kuchni ta'riflaydi va kuchlarning asosiy turlarini nomlaydi (og'irlik, tayanch reaksiyasi, ishqalanish, taranglik, elastiklik, havo/suyuqlik qarshiligi, magnit/elektr); kuch chizmasi nima ekanini biladi; oddiy vaziyatlarda jismga ta'sir etuvchi kuchlarni taniydi, ularni rasmda strelkalar bilan to'g'ri yo'nalishda ko'rsatib, kuch nomlari bilan belgilaydi.	1
8.2. Massa, og'irlik va gravitatsiya kuchi	O'quvchi turli vaziyatlarda (Yer–Oy–boshqa sayyora, lift tezlanishi, balandlik o'zgarishi) massa o'zgarmas, og'irlik esa gravitatsiya va harakat holatiga bog'liq ekanini tahlil qiladi; berilgan kuzatuv yoki shartlardan kelib chiqib qaysi kuchlar jismga ta'sir etayotganini kuch chizmasi orqali ajratadi, og'irlikning "ko'payishi/kamayishi" sababini mantiqan asoslaydi; bir-biriga yaqin tushunchalarni (og'irlik kuchi, gravitatsiya kuchi, tayanch reaksiyasi) solishtirib xulosa chiqaradi va real hayotdagi holatlarda (tarozining ko'rsatishi, kosmonavt "vaznsizligi") to'g'ri izoh beradi.	1
8.3. Harakatlanayotgan jismlarga ta'sir qiluvchi kuchlar	O'quvchi harakatdagi jismga ta'sir qiluvchi kuchlarni (tortishish, tayanch reaksiyasi, ishqalanish, havo/suyuqlik qarshiligi, tortish/taranglik, itarish) vaziyatga qarab ajratadi va kuch chizmasini tuzadi; kuchlarning yo'nalishi va kattaligini solishtirib natijaviy kuch qaysi tomonga yo'nalishini tahlil qiladi va shu asosda jismning harakati (tezlashish, sekinlashish, bir tekis harakat, yo'nalish o'zgarishi) haqida xulosa chiqaradi; ishqalanish yoki qarshilik o'zgarganda (yo'l silliq, g'adir-budur, yuk og'ir–yengil, tezlik katta–kichik) harakat qanday o'zgarishini bashorat qiladi va real hayotdagi holatlarni (velosiped tormozlanishi, mashina sirpanishi, parashyut sekinlashishi) asoslab tushuntiradi.	1
9. Tovushlar (20-savol)		1 ta
9.1. Tovushning hosil bo'lishi. Tovushning balandligi va qattiqligi	O'quvchi tovush jismlar tebranishi natijasida hosil bo'lishini real vaziyatlarda qo'llaydi: qaysi jism tebranayotganini aniqlaydi va tovush manbasini asoslaydi; tebranish tezligi o'zgarsa tovushning balandligi (ingichka–yo'g'on), tebranish kuchi yoki manbaga yaqinlik o'zgarsa tovushning qattiqligi (baland–pastroq eshutilishi) qanday o'zgarishini tushuntiradi; tor uzunligi/tarangligi, puflash kuchi, masofa kabi sharoitlar o'zgarganda tovush qanday chiqishini oldindan aytadi va	1

	kerakli tovushni olish yoki kamaytirish uchun mos usulni tanlaydi.	
10. Magnitlar va magnit kuchi (21-savol)		1 ta
10.1. Magnitlar va magnetik materiallar. Magnit kuchi	O'quvchi magnitni ta'riflaydi, uning qutblari (shimoliy–janubiy) borligini va bir xil qutblar itarishi, har xil qutblar tortishini biladi; magnit kuchini magnitning magnitlar va magnetik jismlarga ko'rsatadigan tortish/itarish ta'siri sifatida aytadi; magnit tortadigan materiallarni (temir, po'lat, nikel, kobalt) va tortmaydiganlarini (yog'och, plastmassa, shisha, mis, alyuminiy) ajratadi; magnit kuchi masofa ortishi bilan kamayishini va u qutblar atrofida kuchliroq bo'lishini taniydi.	1
11. Elektr zanjirlar (22-savol)		1 ta
11.1. Elektr zanjir sxemalari. Elektr zanjir turlari	O'quvchi elektr zanjir sxemasini o'qib, undagi elementlarning (manba, iste'molchi, kalit, o'lchov asboblari) ulanishini tahlil qiladi va zanjir turini (ketma-ket, parallel, aralash) aniqlaydi; sxemadagi o'zgarishlar (kalitning joyi, uzilish, qisqa tutashuv, element qo'shish/olib tashlash) natijasida lampochkaning yorqinligi va asbob ko'rsatkichlari qanday o'zgarishini oldindan aytadi va asoslaydi; berilgan shartga mos (masalan, “bitta kalit bilan ikkita chiroqni alohida boshqarish”, “biri o'chsa boshqasi yonib tursin”) zanjir sxemasini tanlaydi yoki tuzadi va tanlovini mantiqan izohlaydi.	1
12. Yorug'likning tarqalishi (23-savol)		1 ta
12.1. Yorug'likning qaytishi. Yorug'likning sinishi	O'quvchi berilgan rasm va hayotiy vaziyatlarda yorug'likning qaytishi va sinishini aniqlaydi hamda to'g'ri qo'llaydi: ko'zguda aks hosil bo'lishi, suvga solingan qalamning “sinib ko'rinishi”, linza/prizma ta'siri kabi holatlarni izohlaydi; nur sirtga turlicha burchak ostida tushganda qaytgan/singan nurning yo'nalishi qanday o'zgarishini chizib ko'rsatadi, sharoit o'zgarganda (sirt silliq–dag'al, muhit havo–suv–shisha) natija qanday bo'lishini taqqoslab xulosa chiqaradi; ko'rish va optik qurilmalarda (ko'zgu, lupa, ko'zoynak) qaysi hodisa ishlashini asoslab ayta oladi.	1
13. Yer sayyorasining harakati (24-savol)		1 ta
13.1. Yerning aylanish orbitasi. Sayyoralarning tabiiy va sun'iy yo'ldoslari	O'quvchi Yerning Quyosh atrofida aylanishini va uning natijasida fasllar hamda yil davomiyligi bilan bog'liq o'zgarishlarni real holatlar orqali tushuntiradi; rasm/xaritada Yer orbitasini ko'rsatib, “kun–tun” va “yil” hodisalarini farqlaydi; tabiiy yo'ldosh (Oy) va sun'iy yo'ldoshlarning vazifalarini (aloqa, navigatsiya, ob-havo kuzatuvi) misollar bilan qo'llab izohlaydi, berilgan vaziyatda qaysi yo'ldosh turi kerakligini tanlaydi va asoslaydi.	1
14. Quyosh sistemasi (25-savol)		1 ta

14.1. Quyosh sistemasi. Oyning fazalari	O'quvchi Quyosh–Yer–Oy ning fazoviy joylashuvini tahlil qilib, Oy fazalarining paydo bo'lish sababini model asosida izohlaydi; berilgan rasm/sxema yoki kuzatuv jadvalidan Oy fazasini aniqlaydi, fazalar ketma-ketligini asoslab tiklaydi va “qachon yarim oy, qachon to‘lin oy ko‘rinadi?” kabi savollarga mantiqan xulosa chiqaradi; “Oy tutilishi” va “Oy fazalari”ni chalkashtirmay, ularning farqini dalil bilan tushuntiradi, hamda Quyosh sistemasidagi jismlarning harakati o‘zgarsa (masalan, Oy orbitasi holati) fazalarning ko‘rinishi qanday o‘zgarishini bashorat qiladi.	1
15. Atmosfera. Suvning tabiatda aylanishi .(26-27 savollar)		2 ta
15.1. Atmosfera. Suvning tabiatda aylanishi	Yer sayyorasi atmosfera qobig‘i bilan o‘ralganligini, atmosferadagi havoning tarkibini va funksiyalarini biladi hamda izohlay oladi, suvning tabiatda aylanish bosqichlarini farqlaydi, modellashtira oladi va izohlaydi.	1
15.2. Yer sayyorasidagi suv	Yer sayyorasidagi suvning turlari, chuchuk suv tanqisligi, toza suv muammosining ba‘zi texnologik yechimlarini biladi, tabiiy fanlarning muayyan sohasida faoliyat yurituvchi kasb egalarining faoliyatini tavsiflaydi va taqqoslaydi, fan va texnologiya yutuqlaridan foydalanishning atrof-muhitga ta’sirlarini baholaydi.	1
16. Atrof-muhitning ifloslanishi. (28-savol)		1 ta
16.1. Atrof-muhitning ifloslanishi. Ifloslanish turlari	Ifloslantiruvchi omillar va vositalar (chiqindilar, gazlar, kislotali yomg‘ir, global isish) haqida biladi, atrof-muhit ifloslanishiga hayotiy misollarni taqqoslaydi, tahlil qiladi va bunda inson faoliyatining ta’sirini baholaydi, fan va texnologiya yutuqlaridan foydalanishning atrof-muhitga ijobiy va salbiy ta’sirini baholaydi.	1
17. Tog‘ jinslari. (29-savol)		1 ta
17.1. Tog‘ jinslarining turlari. Tog‘ jinslarining o‘zgarishi	Tog‘ jinslarining turlari, ularning hosil bo‘lishi, tuzilishi, tasniflanishi, o‘zgarishi va o‘zgarish bosqichlarini belgilari orqali farqlaydi va tahlil qiladi, vaziyat asosida xulosa chiqaradi, berilgan vaziyat uchun turli jinslar qanday sharoitda vujudga kelishini bilgan holda, ularga xos fizik va kimyoviy xususiyatlarni asoslaydi, umumlashtiradi.	1
18. Tuproq turlari va tarkibi (30-savol)		1 ta
18.1. Tuproq turlari .Tuproq tarkibi va o‘simliklarning o‘shishi	Tuproq turlarini tarkibi va xossalriga asosan bir biridan farqlay oladi va tasniflash ularni taqqoslay oladi, tuproq turlarining xossalrini iqlim va relyef bilan bog‘lab, ularning geografik joylashuvini xaritada aniqlay oladi, tuproq turining unumdorlik darajasini tahlil qilib, berilgan holatda qaysi ekinlar uchun mosligini belgilay oladi, tuproq tarkibining o‘simlik o‘shishiga ta’sirini baholaydi.	1
Jami		30 ta

IV. Kognitiv ko‘nikmalar va baholash mezonlari

Topshiriqlar uchun belgilangan ballar ularning murakkablik darajasini, bajarishda talab etiladigan bilim, ko‘nikma va mantiqiy fikrlash hajmini hisobga olgan holda belgilangan. Ya’ni, osonroq va asosiy bilimlarni tekshiruvchi topshiriqlar nisbatan kamroq ball bilan, yuqoriroq darajadagi qo‘llash, tahlil qilish va mustaqil xulosa chiqarishni talab qiluvchi topshiriqlar esa yuqoriroq ball bilan baholanadi.

Test topshiriqlarining kognitiv ko‘nikmalar va baholash mezonlari bo‘yicha taqsimoti quyidagi jadvalda aks etgan:

Kognitiv daraja	Izohi	Testlar soni (ta)	Baholash mezonlari (ball)
Bilish	Reproduktiv darajadagi topshiriqlarining mazmuni o‘quvchilar tomonidan o‘quv materiali qayta ishlanmasdan, ularning xotira qobiliyatini aniqlovchi, qonuniyatlar, xossalari, formula, tushuncha va atamalarning mohiyatini bilish, yodda saqlash va tanish, odatiy vaziyatlarda qo‘llashga qaratilgan.	6	1,1
Qo‘llash	Produktiv o‘quv topshiriqlarining o‘quvchilar tomonidan o‘rganilgan qoidalar va formulalarni tanish vaziyatlarda qo‘llashni talab etadi. Ushbu topshiriqlarda o‘quvchilar berilgan ma’lumotlar asosida sodda hisob-kitoblarni bajaradi, standart shakldagi masalalarni yechadi hamda formula yoki qoidani to‘g‘ridan to‘g‘ri qo‘llaydi.	6	1,1
	Produktiv o‘quv topshiriqlari o‘quvchilardan o‘rganilgan qoidalar va formulalarni bir nechta bosqichdan iborat hamda qisman nodatiy vaziyatlarda ongli ravishda qo‘llashni talab etadi. Ushbu topshiriqlarda o‘quvchilar masala shartini tahlil qiladi, mos yechim usulini tanlaydi, bir nechta formulalar yoki qoidalarni ketma-ket va mantiqiy bog‘liqlikda qo‘llaydi hamda yechim jarayonida oraliq xulosalar chiqaradi.	9	2,1
Mulohaza qilish	Intellektual darajadagi topshiriqlar o‘zlashtirilgan bilim, va ko‘nikmalarni notanish vaziyatlarda qo‘llash, tahlil qilish, sintezlash, qiyosiy taqqoslash, qonun va qonuniyatlarni qo‘llab, umumlantirishni talab qiladi	9	2,1

Test topshiriqlari umumiy **51 ball** bilan baholanadi. Test topshiriqlarida javob variantlarining faqat bittasi tanlanadi, ikki va undan ortiq tanlangan javoblar uchun ball berilmaydi.

V. Imtihon tartibi

Taqiqlangan vositalar: imtihon vaqtida mobil telefon, aqlli soat, planshet yoki eslatmalardan foydalanish qat'iyan man etiladi.

Axloq va intizom: nusxa ko'chirish, yordam so'rash yoki yordam berish, imtihon davomida gaplashish, ruxsatsiz chiqish kabi holatlar taqiqlanadi.

Nazoratchi qoidabuzarlikni aniqlaganda, dalolatnoma tuzib, tinglovchini testdan chetlashtiradi va natijasi bekor qilinadi.

VII. Tavsiya etiladigan asosiy adabiyotlar

1. "Tabiiy fan" 5-sinf darsligi Aleksandr Grey Toshkent: Novda Edutainment, 2024.

2. "Tabiiy fan" 5-sinf mashq daftari Aleksandr Grey Toshkent: Novda Edutainment, 2024.

3. "Tabiiy fan" 6-sinf darsligi Jasvinder K. Randhawa va Dr Natasha Mehta – Toshkent: Novda Edutainment, 2024.

4. Tabiiy fanlar 6-sinf mashq daftari, Jasvinder K. Randhawa va Dr Natasha Mehta, Teo Tang Vi. – Toshkent: Novda Edutainment, 2024.